

Date: 17th December-2025

O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISHDA MAKTAB VA MAKTABDAN TASHQARI TA'LIM INTEGRATSIYASINI TA'MINLASHNING AHAMIYATI.

Raximjonova Xilola Raximjon qizi

Namangan davlat pedagogika institutining 1-bosqich magistranti

raximjonivaxilola@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktab va maktabdan tashqari ta'limda o'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirishning pedagogik asoslari yoritib berilgan. Shuningdek maqolada o'quvchi-yoshlarni kasbga to'g'ri yo'naltirishdagi mavjud muammolar, amaliyotdagi kamchiliklar ularni bartaraf etish yo'llari hususidagi fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Uzluksiz ta'lim, kasb-hunar, kelajak kasblari, o'z-o'zini baholash, texnologik ta'lim, uzluksiz tizim.

IMPROVING THE MECHANISMS FOR ENSURING THE INTEGRATION OF SCHOOL AND EXTRACURRICULAR EDUCATION IN THE CAREER GUIDANCE OF STUDENTS.

Abstract: This article describes the pedagogical foundations of vocational guidance of students in school and extracurricular education. Also, the article discusses the existing problems in the correct orientation of students to the profession, the shortcomings in practice, and ways to eliminate them.

Keywords: Continuing education, profession, future professions, self-assessment, technological education, continuous system.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda maktab va maktabdan tashqari ta'lim integratsiyasini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirishdan maqsad o'sib kelayotgan yosh avlodni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlashga qaratilgandir. O'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirish natijasida, kelajak kasb qarorlarni shakllantirishdan iborat bo'lib, yoshlar kelajak kasblarini erkin va mustaqil tanlashi uchun kasb-hunarga yo'naltirish masalalariga mustahkam zamin yaratuvchi ilmiy-amaliy tizimni vujudga keltirish ehtiyoji yuzaga kelmoqda. Vujudga keltiriladigan tizim natijasida o'quvchilarning kasbga doir individual xususiyatlarini hamda ularning manfaatlarini, mehnat reruslarini to'laqonli ta'minlash zaruratini hisobga olish lozim. Ammo bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini kasbga yo'naltirishning ilmiy amaliy tizimi yetarlicha darajada ishlab chiqilmaganligi hamda ilmiy pedagogik asoslari talab darajasida yaratilmaganligi mavzu doirasida tadqiqot ishlarini amalga oshirish lozimligini taqozo etadi.

Shu nuqtai nazardan globallashtirish jarayonidagi davr talabi asosidagi tezkor yangiliklar, zamonaviy texnologik o'quv resurslar, dars ishlanmalari, didaktik



Date: 17th December-2025

vositalarning yetishmasligi, kasb tanlash mezon va me'yorining belgilanganligi, kasb tanlash bo'yicha tezkor aloqaning o'rnatilmaganligidan dalolatdir. Kasb tanlash uchun o'quvchi o'z imkonoyatlarini baholay olish ko'nikmasiga, ya'ni qiziqishi mos kasblar bo'yicha ma'lumotga ega bo'lishi, bu kasblarning imkoniyatlari, kelajagi haqida axbort va yangiliklardan xabrdor bo'lishi zarur. Ushbu talablardan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ishchi kasblar bo'yicha kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 8-iyundagi PQ-5140-son qaroriga uzluksiz ta'lim tizimida maktab bitiruvchilarining o'z kasbiy qiziqish va layoqatlari asosida ta'limning keyingi turi va bosqichlariga jalb qilinishi, o'zining tayyorlov yo'nalishlariga to'g'ri va samarali yo'naltirishning muhim masalasi sifatida qabul qilindi.

Mazkur qaror mazmunida qayd etilganidek "uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish, ularning qiziqishlari, moyilliklari, layoqatlari va qobiliyatlariga hos tarzda kasb-hunar tanlashlariga ko'maklashish bilan bir qatorda o'smir-yoshlarni kasbiy o'zligini anglash hamda ularning hayot yo'lini tanlashda maslaxat beruvchi omil" sifatida qaralishi nazarda tutilgan. Hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qaroralar ijrosini ta'minlash yuzasidan o'quvchi-yoshlarning kasbiy qiziqishi va layoqatini shakllantirish, ta'limning keying bosqichiga yoki kasbga yo'naltirishda qo'llaniladigan o'quv-metodik qo'llanmalar, ilmiy-uslubiy tavsiyalar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, jamiyatda qadimdan mavjud bo'lgan hamda yangilanib, o'zgarib borayotgan kasblar haqidagi ma'lumotlarni ta'lim-tarbiya jarayoniga zamon bilan hamnafas yetkazish samaradorligiga bog'liq hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan ayni damda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimida tashkil etilgan huquqiy me'yoriy hujjatlar mazmunini yanada takomillashtirish vazifalarini hal etishi borasida bir qator ilmiy - amaliy yangiliklar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarning qiziqishlari va moyilliklari, tug'ma layoqatlari hamda qobiliyatlarini aniqlash borasida "O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda qo'llaniladigan psixologik-pedagogik tashxis metodikalari"ning yangi taxrirdagi majmuasi yaratildi. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish jarayonida, birinchi navbatda, ularning qobiliyati va mehnati jamiyat manfaatlariga mos tarzda e'tiborga olinishi lozim. Jarayonda turli sohalar, ularni egallash uchun qo'yiladigan talablar, tanlagan yo'nalishi bo'yicha mutaxassis tayyorlaydigan muassasalar to'g'risida ma'lumot berish katta ahamiyatga ega. Bu o'g'il-qizlarni kasb tanlashga ongli munosabatda bo'lishga tayyorlaydi. Yigit-qizlarning kelajakda munosib kasb egasi bo'lishiga ko'maklashish maqsadida kasb.maktab.uz va profnavigator.uz elektron platformalarida testlar majmuasi berilgan. Ular orqali o'quvchilar o'zining qaysi kasbga qobiliyatli ekanini aniqlashi mumkin. O'quvchilarni zamonaviy kasblarga yo'naltirish va o'qitish uchun "Milliy ta'lim resurslari"da 25 dan ziyod zamonaviy sohani o'rgatuvchi 700 dan, "kasb.maktab.uz"da 500 dan, "profnavigator.uz"da 450 dan ortiq videodarslik, videokontent, taqdimot hamda professiogramma joylashtirilgan. Ayni paytda

Date: 17th December-2025

o'quvchilar mazkur manbalardan unumli foydalanib, o'zini qiziqtirgan kasblar haqida batafsil ma'lumot olish bilan birga ushbu kasblarni o'rganish imkoniyatiga egaligidan dalolat beradi.

Shuningdek, o'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini samarali tashkil etishda, ushbu jarayonni ta'lim muassasalarida amalga oshiruvchi o'qituvchilar, pedagog hodimlar hamda aholi o'rtasida (mahalla, ota-onalar) profilaktika ishlarini olib borish maqsadida hamkorlik ishlari amalga oshirilmoqda.

Bularning zahirida o'quvchi yoshlarni kasbiy qobiliyati va layoqatini aniqlash asosida ularni kasbiy qarorlarini shakllantirishga qaratilgan yaxlit faoliyat jarayonida ta'limning keyingi turi va bosqichiga to'g'ri yo'naltirish yotadi. O'quvchilarni kasbiy qarorlarini shakllantirish-bu o'quvchi-yoshlarga o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyotga malakali mutaxassislar ko'magida kasbga bo'lgan layoqatiga ishonch hosil qilish, kasbiy vazifalarni qo'llay olish tajribasini hosil qilish, kasbiy madaniyat sifatleri (kasbiy idrok, kasbiy bilimdonlik, kasbiy tafakkur, kasbiy salohiyat va hokazolar)ni tarbiyalashga yo'naltirilgan izchil, tizimli, uzluksiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan pedagogik faoliyat jarayonidir. Chunki, o'quvchilarni kasb hunarga to'g'ri yo'nalganligini tashkil etish murakkab, uzoq muddatli dialektik jarayon bo'lib, uning metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishi ko'zlangan maqsadga erishish muvaffaqiyatini kafolatlaydi.

Mavjud ob'yektiv va sub'yektiv omillardan unumli foydalanish olish ham o'quvchilarga kasb-hunarni to'g'ri tanlashlariga hissa qo'shadi. Bundan tashqari uzluksiz ta'lim tizimini joriy etilishiga kasb-hunar maktablarning faoliyati natijasida umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quvchilarini ta'limning keyingi turi va bosqichiga to'liq qamrab olish samaradorligini ta'minlash mazkur jarayonlarni tashkil etishga nisbatan yangicha yondashuvni qaror topdirish ta'lim islohatlari doirasida dolzarb masala sifatida qaralmoqda. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishning yondashuvlari o'z mohiyatiga ko'ra texnologik jihatdan to'g'ri bo'lishi lozim. Buning asosiy sabablaridan biri muayyan faoliyatga nisbatan texnologik yondashuv mana shu faoliyatning yaxlit jarayoni xususida oldindan yetarli darajada ma'lumotga ega bo'lish imkoniyatini yaratadi. Minglab kasblar orasidan o'quvchi-yoshlar tanlagan kasb qarorlari bo'yicha turli vaziyatlarni oqilona baholash asosida faoliyat mazmuniga ma'lum o'zgarishlar, yangiliklar kiritib, tarbiyalanuvchilarga mavjud bo'lgan kasbiy sifatlarni hisobga olish imkonini beradi.

Barchamizga ma'lumki, barcha kasblarning ham o'ziga hos bir-biriga ta'luqli bo'lgan odob-qoidalari yoki madaniyati mavjud. Masalan, o'qituvchining kasb madaniyati ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ta'lim-tarbiya beradigan o'qituvchi nafaqat bilimdon, balki tarbiyalangan, ya'ni madaniyatli ham bo'lishi lozim. Demak, mamlakatimizning buyuk kelajakini yaratuvchi yoshlarni tarbiyalovchi mutaxassis xodimlar, eng avvalo, insoniy sifatlari sohibi bo'lishi, kasb madaniyatini mukammal egallashlari lozim.



Date: 17th December-2025

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, o'quvchi-yoshlarni to'g'ri kasb-hunarga yo'naltirish- bu eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi . Inson to'g'ri kasb tanlash orqali o'z shaxsiy hayotini yaxshilabgina qolmay, jamiyatda o'z o'rniga va mavqeyiga ega bo'lishi shular jumlasidandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G'oziyev E., Mamedov K. Kasb psixologiyasi. – T.: O'zMU, 2003. 156-b
2. Yusupova F.I. O'quvchilar individual tayyorgarligini amalga oshirishning pedagogik-psixologik jihatlari. "Xalq ta'limi" jurnali. 2005. №5. 90-93-b.
3. Alisher o'g'li A. A. et al. BOLALAR JISMONIY TARBIYASIDA QO'LLANILADIGAN METODLARNING NAZARIY ASOSLARI //Miasto Przyszłości. – 2024. – T. 44. – C.584-586.
4. Shakhlo Khakimovna Kharatova "Use of innovative technologies in the educational process" Science and Education ISSUE 3, March 2022;
4. Maxmudova.D. "O'quvchilarni kasbga yo'naltirishga oid pedagogik faoliyat element lari orasidagi uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash". Xalq ta'limi jurnali. №3 son, 57-58 bet.

